

Uzbekistan Airways'da korrupsiyaga qarshi yangi loyiha

2022 16 Dekabr

Ayni paytda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning ilg'or xalqaro standartlar talablariga javob beradigan tizimini joriy etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2022-yilning 15-dekabr kuni unda "Uzbekistan Airways" AJ rahbariyatini ISO 37001:2016 standartlarini joriy etishning birinchi bosqich yakunlari haqida xabardor qilish maqsadida aviakompaniya qo'mondonlik-boshqaruv shtabining yig'ilishi o'tkazdi.

news

Image not found or type unknown

ISO 37001:2016 xalqaro standarti aksiyadorlik jamiyatiga korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini ishlab chiqish, joriy etish, saqlash va takomillashtirishda yordam beradi. U korrupsiyaga qarshi kurashishning bir qator usul va vositalarini belgilab berib, ularning qo'llanilishi tashkilotda korrupsiyaning oldini olish, o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etishni ta'minlashga ko'maklashadi.

Shu o'rinda "Uzbekistan Airways" aksiyadorlik jamiyati tomonidan ham xizmatlar ko'rsatishda inson omilini minimallashtirish, yo'lovchilar va yuklarni tashish, xodimlarni jalb qilish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini alohida ta'kidlash joiz.

news

Image not found or type unknown

"Uzbekistan Airways" aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga ISO 37001:2016 xalqaro standartini joriy etish loyihasi o'z ichiga to'rt bosqichni oladi, ularni to'liq amalga oshirish esa 2023-yilga mo'ljallangan.